

“Ayollarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish va gender siyosatining mazmun mohiyati” mavzusida onlayn suhbat o‘tkazildi.

Toshkent shahridagi Turin Politexnika Universitetida ZOOM platformasi orqali “Ayollarni tazyiq va zo‘ravonlikdan himoya qilish va gender siyosatining mazmun mohiyati” mavzusida onlayn davra suhbat bo‘lib o‘tdi.

Davra suhbat mehmoni Birlashgan Millatlar Tashkilotining Aholishunoslik bo‘yicha jamg‘armasining gender masalalari bo‘yicha milliy ekspert, Fuqarolik tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash markazining gender va gender zo‘ravonlik bo‘yicha dasturining trener-konsultanti, psixolog, zo‘ravonlik muammosi bo‘yicha 20 yillik tajribaga ega, Rossiya va Turkiyada malaka oshirgan Irmatova V. va Olmazor tumani IIO FMB XKMB katta inspektori podpolkovnik Matchanova O. bo‘lishdi.

Suhbat davomida hozirgi kunda dolzarb mavzuga aylangan ayollarga bo‘lgan munosabatlar, tazyiqlar va zo‘ravonliklar haqida ta‘kidlab o‘tildi. Shu bilan bir qatorda zo‘ravonliklar oldi olinishiga qaratilgan bir qator chora tadbirlar va yangi joriy etilgan qonun-qoidalar bilan tanishtirildi.

Ushbu suhbatda qatnasha olmagan talabalar uchun yozib olingan videoni quyidagi havolada taqdim etamiz:

<https://www.youtube.com/watch?v=-QVoVfUhyTE>

Спикер:

**Венера Ўринбаевна
Эрметова**

– БМТнинг Аҳолишунослик
бўйича жамғармасининг гендер
бўйича миллий консультанти.


Фуқаролик ташаббусларини
қўллаб-қувватлаш марказининг
гендер масалалари бўйича
маслаҳатчи тренер.

Ўзбекистон психологлари
уюшмасининг аъзоси.



ГЕНДЕР СИЁСАТИ

Гендер сиёсати – жамиятнинг барча соҳаларида эркеклар ва аёллар учун ҳуқуқлар, имтиёзлар, бурчлар ва имкониятларнинг тенглигига эришишга қаратилган, жинси асосида камситишга барҳам беришга қаратилган фаолият.



Хулоса ўрнида:

«Гендер тенглигига эришиш масаласи Ўзбекистон учун устувор сиёсат йўналиши ҳисобланади. Мустақиллик йилларида бу масала тилга олинмаган, аёлларнинг зўравонликка учраши мавзуси ёпиқ бўлган бўлса, сўнгги уч йилда бу борада 2та қонун ва 15дан зиёд норматив-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинди. Қонунлар бўлса-да, лекин уларни амалиётга татбиқ қилишда ҳали кўплаб муаммолар бор».



«Одамларнинг дунёқарашини ўзгартириш керак» – Танзила Норбоева

- Гендер тенгликка эришиш учун янги хулқ-атвор моделларини, яъни эркак ва аёл шерик ва ҳамкор эканлигини тарғиб қилиш орқали гендер стереотипларини ўзгартириш зарур.
- Гендер тенгликка эришилса кўп ижтимоий муаммолар ўз-ўзидан хал бўлади, жамиятда мувозанат вужудга келади.
- Гендер зўравонликнинг асосий сабаби гендер тенгсизлиги.

